




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-mart)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2022- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 346,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 241,7 mln. AQSh dollariga yoki 21,9 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 452,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 102,7 %) va import hajmi 894,1 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 134,6 %) yetdi. Hisobot davrida 441,3 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-martga nisbatan, %da)

2022- yil yanvar-mart





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Xitoy	309,2	100,6	208,6	23,0
Rossiyskaya Federatsiya	282,5	89,6	192,9	21,0
Qozog'iston	202,5	26,4	176,1	15,0
Turkiya	175,7	135,9	39,8	13,0
Koreya Respublikasi	56,2	1,5	54,7	4,2
Braziliya	52,8	0,0	52,8	3,9
Ukraina	25,0	10,0	15,0	1,9
Germaniya	18,2	1,1	17,1	1,4
Afg'oniston	17,5	17,3	0,2	1,3
Tojikiston Respublikasi	15,9	12,4	3,5	1,2
Polsha	15,5	4,0	11,5	1,2
Italiya	14,3	6,4	7,9	1,1
Qirg'iz Respublikasi	13,0	7,9	5,1	1,0
Eron (Islom Respublikasi)	9,4	0,3	9,1	0,7
Belarus	9,0	6,4	2,6	0,7
Hindiston	8,3	1,2	7,1	0,6
Irlandiya	8,2	0,0	8,2	0,6
Pokiston	8,1	0,4	7,7	0,6
Ozarbayjon	8,0	1,6	6,4	0,6
Singapur	7,5	6,0	1,5	0,6



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,7 %ni hamda o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 107,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-mart oylarida 58,3 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,5 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,3 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-mart, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Korea Respublikasi va Braziliya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-mart)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-mart oyi yakuni bilan 452,8 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 102,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,1 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (72,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,5 %), turli xil tayyor buyumlar (9,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,9 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,4 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,1 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-mart)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	452,8	156,1	296,7	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	38,6	14,7	23,9	8,5	9,4	8,0
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,6	0,0	0,1	0,4	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	17,8	9,4	8,4	3,9	6,0	2,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,2	0,2	0,0	0,0	0,1	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	11,1	8,2	2,9	2,5	5,3	1,0
Sanoat tovarlari	327,3	68,8	258,5	72,3	44,1	87,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	9,5	9,4	0,1	2,1	6,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	45,0	43,8	1,2	10,0	28,1	0,4
Xizmatlar	2,6	0,9	1,7	0,6	0,6	0,6






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-mart)

2022- yilning yanvar-mart oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	102,7	110,9	98,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	81,5	75,8	85,5
Ichimliklar va tamaki	124,5	135,9	16,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	94,6	106,6	83,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	9,9 m.	459,1 m.	117,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	10,5	5,5 m.	1,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	86,1	98,2	63,8
Sanoat tovarlari	104,7	109,6	103,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	101,2	171,6	3,4
Turli xil tayyor buyumlar	125,1	124,7	142,9
Xizmatlar	96,7	3,0 m.	69,7



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 392,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 86,6 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 18,3 mln. dollar qiymatga ega 19,3 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 36,5 %ga kamaygan, naturada – 61,9 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 10,6 mln. AQSh dollariga teng 13,3 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 48,9 %ga kamaygan), shuningdek, 3,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 2,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 20,8 %ga kamaygan).

2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar

2,6 ming
tonna

3,7 mln.
AQSH dollari



Uzum

2,3 ming
tonna

2,5 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar

1,1 ming
tonna

1,4 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar

13,3 ming
tonna

10,6 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-mart oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 18,2 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 4,0 %ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-mart)


Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oyi mobaynida import hajmi 894,1 mln. AQSh dollari (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 134,6 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (26,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,2 %), sanoat tovarlari (20,4 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (13,7 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



*XSST BO'YICHA
IMPORT TARKIBI
(mln. AQSH dollari)*



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Boshqa turdagi tovarlar
- Xizmatlar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-mart)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	894,1	405,5	488,6	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	163,0	76,4	86,6	18,2	18,8	17,7
Ichimliklar va tamaki	0,8	0,8	0,0	0,1	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	122,2	113,6	8,6	13,7	28,0	1,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	25,9	25,3	0,6	2,9	6,2	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	11,5	11,2	0,3	1,3	2,8	0,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	94,8	20,9	73,9	10,6	5,2	15,1
Sanoat tovarlari	182,7	128,4	54,3	20,4	31,7	11,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	236,3	21,8	214,5	26,4	5,4	43,9
Turli xil tayyor buyumlar	39,0	4,9	34,1	4,4	1,2	7,0
Boshqa tovarlar	1,9	1,9	0,0	0,2	0,5	0,0
Xizmatlar	16,0	0,3	15,7	1,8	0,0	3,2

Importning eng katta ulushi, sanoat tovarlari (31,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (28,0 %), MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-mart, % hisobida)

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	134,6	105,6	174,5
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	158,3	136,5	184,4
Ichimliklar va tamaki	64,6	71,1	2,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	99,1	97,2	134,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	58,8	57,9	188,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	60,7	60,4	72,7
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	195,1	156,7	2,0 m.
Sanoat tovarlari	144,1	139,7	155,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	144,8	58,8	170,1
Turli xil tayyor buyumlar	148,7	3,0 m.	138,5
Boshqa tovarlar	121,5	121,5	-
Xizmatlar	2,2 m.	11,6	3,1 m.





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Braziliya, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 742,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,0 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59